XALQ DEPUTATLARI G‘IJDUVON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-19-130-2-34-K/25 G‘ijduvon tumani

G‘ijduvon tumanining 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonuniga va xalq deputatlari Buxoro viloyat Kengashining 2025-yil 30-dekabrdagi “Buxoro viloyatining 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-21-112-2-0-K/25-sonli qaroriga muvofiq, xalq deputatlari G‘ijduvon tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonuni hamda xalq deputatlari Buxoro viloyat Kengashining 2025-yil 30-dekabrdagi “Buxoro viloyatining 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-21-112-2-0-K/25-sonli qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, G‘ijduvon tumani mahalliy byudjetining 2026-yilgi daromadlari **192 mlrd.208,2 mln. so‘m** hamda mutanosib ravishda xarajatlari **192 mlrd.208,2 mln. so‘m** tasdiqlanganligi, shuningdek, G‘ijduvon tumani mahalliy byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **1 mlrd.531 mln. so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. G‘ijduvon tumani mahalliy byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman mahalliy byudjetidan 2026-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq, shuningdek, tuman mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. G‘ijduvon tumani mahalliy byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun 2 mlrd. 823 mln. so‘m miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari - tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (A.Rajabov), tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi, tuman soliq inspeksiyasi (D.Muxtorov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan byudjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari G‘ijduvon tumani Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

byudjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

byudjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

7. Mazkur qaror “G‘ijduvon” gazetasi va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari G‘ijduvon tumani Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Olimov) hamda G‘ijduvon tumani hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Rajabov zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **RAXMATOVA MUSALLAM LATIPOVNA**

Xalq deputatlari G‘ijduvon tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-19-130-2-34-K/25 -son qaroriga
1-ilova

G‘ijduvon tumani byudjeti daromadlarining
2026-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Kontingent reja	Mahalliy reja
1.	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	0,0	5 786 600,0
2.	Aylanmadan olinadigan soliq	29 282 000,0	29 282 000,0
3.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	14 473 140,0	26 413 600,0
4.	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	0,0	4 482 680,0
5.	Aksiz solig‘i, jami	0,0	12 394 730,0
	shu jumladan:		
	- alkogol mahsulotlaridan soliq	*0,0*	*0,0*
	- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	*0,0*	*12 394 730,0*
6.	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 809 000,0	7 710 000,0
7.	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	23 006 000,0	23 006 000,0
8.	Yuridik shaxslar yer solig‘i	2 507 000,0	26 577 000,0
9.	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	38 378 580,0	38 378 580,0
10.	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	0,0	2 199 000,0
11.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	383 000,0	4 338 000,0
12.	Davlat boji	0,0	4 758 600,0
13.	Jarimalar	0,0	4 687 200,0
14.	Ijara to‘lovi	458 000,0	458 000,0
15.	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	0,0	0,0
16.	Yig‘imlar	0,0	1 736 200,0
17.	Xususiylashtirish	0,0	0,0
18.	Boshqalar	0,0	0,0
JAMI		**110 296 720,0**	**192 208 190,0**

Xalq deputatlari G‘ijduvon tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-19-130-2-34-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun G‘ijduvon tumani mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
	Xarajatlar miqdori, jami	**192 208 190,0**
1.	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	57 676 963,0
	shundan:	
	"Mening maktabim"	4 140 600,0
2.	Madaniyat bo‘limi	11 782 411,0
3.	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	7 990 438,0
4.	Sport bo‘limi	10 645 818,0
5.	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	0,0
6.	Qishloq xo‘jaligi soha tashkilotlari	6 039 127,0
7.	Suv yetkazib berish xizmati DM	2 396 339,0
8.	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	0,0
9.	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	337 994,0
10.	Hokimiyat	68 280 926,0
	shundan:	
	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	*2 825 293,0*
	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*2 465 470,0*
	Madaniyat bo‘limi (boshqaruv)	*244 481,0*
	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi (boshqaruv)	*496 020,0*
	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi	*295 054,0*
	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi	*694 552,0*
	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*956 647,0*
	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	*315 074,0*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*34 169 236,0*
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*4 085 000,0*
	Zahira jamg‘armasi	*2 822 986,0*
11.	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	1 133 903,0
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini	*114 233,0*

	saqlash xarajatlari	
	Axborot-kutubxona markazlari	*1 019 670,0*
12.	Obodonlashtirish boshqarmasi	25 924 271,0
13.	Boshqa tashkilotlar	0,0

Xalq deputatlari G‘ijduvon tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-19-130-2-34-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026-yilda G‘ijduvon tumani mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar hamda soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan ajratma me’yorlari

foiz hisobida

№	Mahalliy byudjet nomi	Qo‘shilgan qiymat solig‘i		Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i		Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan		Foyda solig‘i		Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)		Pivo		Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i		Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	
		Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga

		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar
1.	G‘ijduvon tumani	0 %	4 %	20 %	16 %	0 %	20 %	100 %	80 %	100 %	100 %	0 %	0 %	0 %	20 %	100 %	80 %	0 %	0 %	30 %	30 %	0 %	0 %	30%	30 %	0 %	31 %	100%	69 %	0 %	100 %	100 %	0%

№	Mahalliy byudjet nomi	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i		Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq		Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq		Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar		Aylanmadan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat’iy miqdorda belgilangan soliq	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	Davlat boji		Jarimalar		Yig‘imlar	
		Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byu	Tuman (shahar)lar byu	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Tuman (shahar)lar byu	Tuman (shahar)lar byudjet	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byu	Viloyatning viloyat byudjeti	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga

		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	djetiga	djetiga			djetiga	iga		djetiga	ga		
1.	G‘ijduvon tumani	0%	100 %	100 %	0%	100 %	100 %	0%	0%	100 %	100 %	0%	0%	0%	100 %	100 %	0%	100 %	100 %	100 %	100%	100 %	20 %	80%	20 %	80%	20%	80%